

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Uralova Dilfuza O'ktam qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada, konstitutsiya tarixi va O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'lдagi izlanishlari natijasi ekanligi tahlili va konstitutsiyasining milliy qonunchilik asosi ekanligi haqida so'z yuritilib, konstitutsiyaning boshqa qonunlardan farqli jihatlari ham bat afsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, “o'rnatish”, “Tuzuklar”, xonliklar, konstitutsiyaviy hujjat, advokatura, inson, oila, jamiyat, mehnat qilish, erkin kasbtanlash, umuminsoniy qadriyatlar, demokratik konstitutsiya.

Konstitutsiya ([lotincha](#): *constitutio* — “o'rnatish”, “belgilash”) — bu davlatning asosiy bosh qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini, advokatura, sohalaridagi bilimlarni belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog'da sharafli solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'lдagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Ma’lumki, har bir davlatning shakllanishida Konstitutsianing o‘rni juda ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdagi qabul qilingan bo‘lib, har yili mazkur sana bayram sifatida keng nishonlanadi. Bizning bosh Qomusimiz millatimiz ruhiga, hayot tarzi va urf-odatlariga mos keladigan imon-e’tiqod, insof, diyonat, mehr oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi eng ezgu fazilatlarni o‘z ichiga olgan Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Yaratilayotgan boshqa qonunlar yuqorida konstitutsiyaviy me’yorlarga asoslanadi, me’yoriy hujjatlar ham shu asosda ishlab chiqiladi.

Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlatning hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, jumladan, yurtimiz musulmonlari asosiy qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanishmoqda. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e’tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo‘yilgan. Konstitutsianing 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyilgan.

Qolaversa, asosiy qonunimiz ko‘plab asosiy belgilab qo‘yilgan moddalarida insonning huquqlari umumjahon deklaratsiyasining normalari

hamda mazkur sohadagi boshqa ilg‘or xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizimini o‘zida mujassam etgani uning har jihatdan puxtaligini oshirish imkonini berdi.

Shu bois o‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz konstitutsiyasi xalqimiz manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qodir, umume’tirof etilgan demokratik qadriyatlarga to‘la javob beradigan, jamiyatda adolatni qaror toptirishga xizmat qiladigan asosiy hujjat ekani to‘la isbotlangan.

Konstitutsiya va unda belgilab qo‘yilgan moddalar sharofati bilan mamlakatimizda fuqarolar va millatlar o‘rtasidagi totuvlik ta’minlanib, turmush darajasi yildan-yilga yuksalib, ijtimoiy-madaniy rivojlantirish, sohalarida yuksak marralarga erishildi. Kelajak egalari bo‘lgan yoshlar Respublika Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan insonning huquq va majburiyatlar, ularni amalga oshirishga oid moddalarning samarasini anglagan holda o‘z huquq erkinligini angladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, ular saylov qonunchiligining muhim masalalari bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega. Nafaqat yoshlar, balki butun o‘zbek xalqi bunday huquqqa ega.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilangan har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, ma’muriy sudlarga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat bojini undirmaslik, bunda davlat bojini ishni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha aybdor tarafdan undirish tartibi joriy etilsin.

O‘z navbatida, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida: “Amaldagi Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlari va yoshlar siyosati haqida birorta ham so‘z yo‘qligi albatta adolatdan emas. Kelajak avlod haqida

g‘amxo‘rlik dunyoning bir qator davlatlarining konstitutsiyalari va xalqaro shartnomalarda asosiy huquqiy norma sifatida mustahkamlangan. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kelajak avlod haqida alohida bob kiritish zarur”, degan fikrlar ta’kidlangan hamda bu boradagi hayotiy talablar kun tartibiga qo‘yildi.

Yana bir muhim yangilik: yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida Asosiy qonunga kiritildi. Konstitutsianing 79-moddasi ikkinchi bandiga ko‘ra: “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig’ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsianing 53-moddasi birinchi bandida: “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi”, deb ta’kidlangan. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Yangilangan Konstitutsiyaga asosan davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Masalan, boshqa odamlarning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish uchun jazolash fikr bildirish erkinligini chegaralashi mumkin. Biroq u boshqa odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish uchun har qanday holatda zarurdir. Bunday chegaralashlar “jamiyat farovonligi” kontseptsiyasi doirasida tushuntirilishi mumkin. Shunday qilib, “jamiyat farovonligi” kontseptsiyasi doirasida insonning barcha ana shunday huquqlari boshqa odamlar huquqlariga zid kelmasa, ularni chegaralash uchun asos yo‘q. Masalan, fikrlash va vijdon erkinligi (19-modda) mutlaq qoida sifatida anglanadi va bu masalada chegaralashlarga yo‘l qo‘yilmaydi

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Konstitutsiyada jamiyatning roli haqida keng yoriltilgan bo‘lib buni yanada mustahkamlash jarayonida referendum o‘tkazilishi jarayonida o‘zimizning taklif va mulohazalarimizni berishimiz hamda uning rivojiga shu yo‘l orqali yoxud o‘z faolligimiz orqali hissa qo‘shishimiz mumkin.

O‘z navbatida shaxslar jamiyat rivoji uchun o‘z faolliklari aqliy va foydali jismoniy mehnatlari huquqiy madaniyatlari va burchlarini bajarish orqali jamiyat rivojiga o‘z hissalarini qo‘shishlari mumkin. Ya‘ni o‘zlarinimg konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangan holda shaxsiy fikrlarini bildirishlari mumkin hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) 2023 yil.
3. Xusanov.O. “Konstitutsiyaviy huquq” Toshkent: Adolat, 2013.
4. Konstitutsiyaviy huquq, ensiklopedik lug‘at. Toshkent, 2006 yil.
5. Internet ma’lumotlari